

INGLIZ TILI DARSLARIDA MAMLAKATSHUNOSLIKKA OID
MATNLARNI O'QISHNI O'RGATISH USULLARI

Kamolova Mahfuza Abduraxmonovna

*Namangan Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyoti Kafedrasida
Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) II kurs magistranti*

Annotatsiya: Xorijiy tillarni o'rganishda mamlakatshunoslik fani o'ziga hos ahamiyatga ega, chunki til o'rganish zamon talabi. Til bilan birga o'sha davlat yashash tarzi, hayoti, tarixi, madaniyati barcha til o'rganuvchilarda qiziqish uyg'otadi. Ushbu masalada so'z yuritganda ushbu fanni o'qitishda yuzaga keldigan turli muammolar haqida ham aytib o'tish lozim. Ushbu maqola muallifi bu muammolarga yechim topish maqsadida ushbu yo'nalishda izlanishlar olib bordi va ushbu maqolasida bu haqida atroflicha yoritib berishga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: mamlakatshunoslik, madaniyat, transmadaniy yondashuv, taqqoslash metodi

METHODS OF TEACHING READING OF TEXTS RELATED TO COUNTRY
STUDIES IN ENGLISH CLASSES

Kamalova Mahfuza Abdurakhmonovna

*Namangan State University Department of English Language and Literature
Literary studies (English literature) 2nd year master's student*

Annotation: The science of country studies is of special importance in learning foreign languages, because language learning is the need of the hour. Along with the language, the lifestyle, life, history, and culture of that country are of interest to all language learners. When talking about this issue, it is necessary to mention the various problems that have arisen in the teaching of this subject. The author of this article has conducted research in this direction in order to find a solution to these problems and will try to explain it in detail in this article.

Key words: country studies, culture, transcultural approach, comparative method

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ЧТЕНИЮ СТРАНОВЕДЧЕСКИХ ТЕКСТОВ НА
УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Камалова Махфуза Абдурахмоновна

*Наманганский государственный университет Кафедра английского языка и
литературы*

Литературоведение (английская литература) магистрант 2 курса

Аннотация: Страноведческая наука имеет особое значение в изучении иностранных языков, потому что изучение языков является потребностью времени. Наряду с языком, образ жизни, быт, история и культура этой страны представляют интерес для всех изучающих язык. Говоря об этом вопросе, необходимо упомянуть о различных проблемах, возникших при преподавании данного предмета. Автор этой статьи провел исследования в этом направлении, чтобы найти решение этих проблем и постарается подробно объяснить это в этой статье.

Ключевые слова: страноведение, культура, транскультурный подход, сравнительный метод.

Oxirgi yillarda xorijiy tillarni o'rganayotganlar soni keskin oshdi. Texnika rivoji tufayli, zamon bilan hamnafas inson kamida 2 ta tilni o'rta muloqat darajasida bilishi talab etila boshlandi. Ota – onalar ham farzandlariga xorijiy tilni imkon qadar erta o'rgatishni xoxlashyabdi.[1]

Til o'rganish esa faqatgina grammatik ma'lumotlarni o'rganish, yangi so'zlarni yodlash bilan amalga oshmaydi. Shular bilan birgalikda tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, geografiyasi, madaniyati ham o'rganiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham tillarni o'rgatish jadal ravishda amalga oshirilmoqda. Nafaqat ingliz tili, balki boshqa chet tillari ham maktab, universitet dars jarayonlariga kiritilgan.[2]

Ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchi, o'rganuvchini madaniyatlararo muloqatni to'g'ri olib borishga, o'rganilgan nazariyani amaliyotda qo'llay olishiga shakllantirishdan iboratdir. Buning uchun tili o'rganilayotgan mamlakatning tarixi va hozirgi hayoti, uning an'analari va madaniyati bilan bosqichma bosqich tanishtirib borish kerak.

Albatta bu borda o'qituvchi pedagoglarning o'rni yetarlicha ahamiyatga ega hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi til o'rganuvchilarning o'rgnishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishdir. Buning uchun o'z navbatida o'qituvchi darsni to'g'ri tashkil eta olishi, darsda real va hayoliy xorijiy til muhitini yarata olishi, rollardan foydalanishi, turli motivatsion o'yinlar, munozaralar, savol – javoblar tashkil eta olishi zarur. [3]

Mamlakatshunoslik fanini o'rganish o'quvchilarga ma'lum mamlakatning bilimi bizga madaniy va madaniy bilimlarni egallashga yordam beradi, shu bilan birga ushbu mamlakat hayot tarzi, rivojlanish bosqichlari haqida o'rganish osonlashadi.

Mamlakatshunoslik faninini o'qitish uchun turlicha yondashuvlar, shuningdek, ular bilan bog'liq faoliyat va texnikalar bir qancha olimlar tomonidan taklif qilingan. Shu bilan birga, tanlov ko'plab omillarga bog'liqligini unutmashlik kerak: [4]

✓ til o'rgatilgan vaziyat;

- ✓ o'quvchilarning yoshi va chet tilini bilishi;
- ✓ o'qituvchi.

Mamlakatshunoslikni o'qitish tarixida turli xil yondashuvlarni ko'rish mumkin. Ulardan ba'zilari vaqt o'tishi bilan o'z o'rnini yo'qotdi; ba'zilari esa haliyam mavqega ega bo'lgan va hozir ham mavjud. Yondashuvlarni turli yo'llar bilan tasniflash mumkin.[5] Keng ma'noda ularni ikkiga bo'lish mumkin:

- a) faqat tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga e'tibor qaratadiganlar (monomadaniy yondashuv)
- b) o'quvchilarning o'zlarining davlatlari va boshqalarni solishtirishga asoslanganlar. madaniyat (qiyosiy yondashuv)

Hozirgi kunda monomadaniy yondashuv o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Qiyosiy yondashuvda esa ma'lum ma'noda o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda, chunki taqqoslash qiyoslash orqali ma'lumotlarni yodda saqlash ancha samarali yo'l hisoblanadi.

Mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'rganishda madaniyatlararo yondashuv madaniyatni taqqoslash orqali yaxshiroq o'rganish imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuv 1980-yillardan beri tobora ko'proq tan olindi. Biroq, Risager [6] bu yondashuvni noadekvat deb hisoblaydi, chunki u "deyarli barcha mavjud mamlakatlar yoki davlatlarning haqiqiy ko'p madaniyatli xarakteriga ko'r-ko'rona bo'lmaydi" va o'qituvchilar multikultural yondashuvdan foydalanishni taklif qiladi.

Ko'p madaniyatli yondashuv bir madaniyat ichida bir nechta madaniyatlar mavjud degan g'oyaga asoslanadi. Ko'p madaniyatli yondashuvda til o'rganuvchilardan o'z e'tiborini mamlakatlarning etnik ximla xilligiga e'tibor eberishi talab etiladi. Bu yondashuvda ham taqqolash qiyoslash muhim o'rin tutadi.

Risager tomonidan taklif qilingan uchinchi yondashuv - bu transmadaniy yondashuv. Buning asosiy g'oyasi shundaki, zamonaviy dunyoda madaniyatlar keng qamrovli turizm, migratsiya, butun dunyo bo'ylab aloqa tizimlari, iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va globallashuv tufayli bir-biriga bog'langan. Bu ko'pchilikning chet tillarini lingua franca sifatida bilishi ham o'z aksini topadi. Shunday qilib, transmadaniy yondashuv chet tilini xalqaro til sifatida ko'rib chiqadi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarni xalqaro muloqot uchun foydalanishni o'rgatishdir. Bu holatda o'rganilayotgan chet tili biror madaniyatga bog'lanmaydi. Ushbu yondashuv 1980 – yillargacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Vazifaga yo'naltirilgan yondashuvda til o'rganuvchilar o'zlari tadqiqot olib boradi, mamlakatshunoslikning turli jihatlari bo'yicha juftlik yoki kichik guruhlarda ishlaydilar. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun xulosa va natijalar boshqa guruhniki bilan taqqoslanadi va solishtiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, mamlakatshunoslik faqatgina biror bir davlatning geografik holati yoki tuzilishini o'rgatmaydi. Bu fan keng qamrovli fan

bo'lib tili o'rganilayotgn mamlakat aholisi yashash tarzi, hayoti, madaniy jihatdan faoliyati, dini, ta'limi o'rganiladi. Ushbu fanni o'rganishda yuqorida keltirib o'tilganidek turlicha yondashuvlar mavjud, bularning orasidan mosini va keraklisini tanlab olish o'qituvchi salohiyati va til o'rganuvchilarning bilim darajasiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari"
2. [What we can learn from teaching methods around the world - Scholarcy | The long-form article summariser](#)
3. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari"
4. "Ways of teaching culture", Xlyupina, 2016
5. www.moluch.ru/archive
6. "Language teaching and the process of European integration", K Risager
7. www.wikipedia.org
8. Teaching methods and techniques.